

O'SMIRLAR VA KATTA YOSHLI INSONLAR DIQQATINING RIVOJLANISH XUSUSSIYATLARI

Karimov Sardorbek Anvarjon o'g'li

O'zMu Ijtimoiy fanlar fakulteti

Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada diqqatning muhim jarayon bo'lib, inson psixologik jarayonlarining barcha faoliyatlarida ishtirok etishi va rivojlanishi har bir individ yoki yosh davrida turlicha bo'lishi haqida ma'lumot berilgan. Eng sodda faoliyatdan tortib eng murakkab faoliyatni ham diqqatning ishtirokisiz bajarish mutlaqo mumkin emas. Shuning uchun diqqatning inson hayotidagi roli benihoya kattadir.

Kalit so'zlar: diqqat, ta'lim jarayoni, individ, hissiy, aqliy, faoliyat, bilish jarayonlari.

Bugungi kunga kelib ilm-fan rivojiga bo'lgan e'tibor kuchaytirilmoqda. Kelajagimiz egalari bo'lgan yosh avlodning kuchli bilimga ega bo'lishi, o'z sohosaning yetuk mutahassisini bo'lishi kerakligi hozirgi zamonining talabi, albatta. Mamlakatimizda ham yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar haqida shunday fikr bildirgan edilar: «Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim-yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarnig avlodlarimiz, degan davat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz?»

Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan» deya ta'kidlagan edilar. Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat. Bu borada prezidentimiz tomonidan taxsinga sazovor ishlar amalga oshirilmokda. Yurtimizda chet-el bilan hamkorlikda tashkil etilayotgan ko'plab oliy ta'lif muassasalari, maktab va litseylar, Prizident maktablari shular jumlasidandir. Yoshlarimizning kitobxonlikga bo'lgan qiziqishlarini rag'batlantirish maqsadida tashkil etilgan tanlovlardan ham bunga misol bo'la oladi.

Diqqatning rivojlanishini o'rganish uchun o'smirlilik yoshidagi o'quvchilarda shulte testini o'tkazdim. Lekin ushbu jarayonni o'rganishda katta yoshli insonlarning ham diqqatini o'rganish va o'smir yoshdagilar bilan taqqoslash orqali tadqiqotda ko'proq natijaga erishishni maqsad qildim. O'smir yoshdagi o'quvchilarning test natijalarini tahlil qilish jarayonida ularning mактабдаги о'кув фоилиятини ham o'rgandim. Ushbu o'quvchilar haqida fan o'qituvchilaridan fanlarni o'zlashtirish darajalari haqida ma'lumotlar oldim. O'tkazilgan tadqiqot natijasiga ko'ra o'quvchilarning asosiy qismida diqqatining kuchli ekanligini, diqqat ko'chishi va barqarorligi yaxshi rivojlanganligini kuzatdim. Qolgan o'quvchilarda ham diqqat konsentratsiyasi va barqarorligi me'yorda ekanligi aniqlandi. O'quvchilarning kam qismidagina diqqat rivojlanishi, ko'chishi va barqarorligida muamolar borligi aniqlandi. Diqqatning rivojlanishini o'smirlarda o'rganish davomida past o'zlashtiruvchi o'quvchilarda ham diqqati kuchli rivojlangan ekanligini kuzatdim. Ushbu natijaga ko'ra o'quvchining past o'zlashtirishini uning diqqati bilan bog'lash doim ham to'g'ri emas degan fikrga keldim. Ta'lif jarayonida o'quvchilarning bilish jarayonlari, diqqatini rivojlantirish bilan birgalikda ularning o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishlari motivlarini o'rganish va albatta manashu motivlarni hisobga olgan holda o'qish faoliyatini to'g'ri tashkil qilish orqali ko'proq natijaga erishish mumkin.

O'quv faoliyatida diqqati sust rivojlangan o'quvchilar bilan individual mashg'ulotlarni o'tkazish esa past o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ta'limgandan ortda qolmasligi uchun xizmat qiladi. Har bir o'quvchining individual psixologik

xususiyatlarini xisobga olgan xolatda ta’lim jarayonini tashkil etish esa ta’lim sifatini yaxshilashi mumkin.

O’smirlarning diqqatini o‘rganish davomida, katta yoshli insonlarning ham diqqatini o‘rganib, o’smirlarning diqqati bilan taqqosladi. Ehtimolki katta yoshli insonlar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanganligi sabab bo‘lsa kerak , ularda diqqat barqarorligi, ko‘chishi, konsentratsiyasi, yaxshi xolatda ekanligi aniqlandi. Salbiy o‘zgarishlar esa aniqlanmadid. Hozirgi kunda o‘quvchilar diqqatini rivojlanishini ortga surayotgan yoki salbiy ta’sir ko‘rsatayotgan turli xildagi chalg‘ituvchi stimullar mavjud. Agar o‘quvchilar diqqatini rivojlantirmoqchi bo‘lsak, manashu chalg‘ituvchi stimullarni yo‘qotishimiz zarur bo‘ladi.

XULOSA

O‘quvchilar diqqatini testlar yordamida o‘rganish davomida ularda diqqat yaxshi rivojlanganligini, faqat kam qismidagina diqqat bilan bog‘liq muamollar mavjudligini aniqladim. Agar o‘quvchilarda o‘zlashtirish pastligi bilan bog‘liq muamolar yuzaga kelsa bu holatni diqqat bilan bog‘lash doim to‘g‘ri bo‘lmasligini tushundim. Bunday holatlarda o‘quvchining bilish jarayonlarini, o‘quv motivlarini o‘rganish zarur bo‘ladi. Ushbu tadqiqot jarayonida ishtirok etgan katta yoshli insonlarda esa diqqat bilan bog‘liq muamolar kuzatilmadi.

Tavsiyalar

1. O‘quvchilar diqqatni rivojlantirish uchun birinchi navbatda ulardagi chalg‘ituvchi stimullarni bartaraf etish zarur.
2. O‘quvchilardagi bilish jarayonlarini o‘rganish va qaysi bilish jarayoni ortda qolganini aniqlab koreksiya qilish.
3. O‘quvchilardagi motivlarni aniqlash va motivlardan kelib chiqib o‘quv faoliyatini tashkil qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT bosh Assambiliyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan.
2. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2008-yil.
3. Z.Nishanova, Z.Qurbanova, S.Abdiyev, "Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya" Toshkent-2011.